



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS
KREATIVLIK

Dilshodaxon Umaraliyeva Zafarbek qizi
Andijon davlat pedagogika instituti magistri

Annotatsiya. Ushbu tezisda kreativlik, kreativlik tarixining asosiy bosqichlari va o'z davrining yetuk olimlarining kreativlik haqida ilgari surgan g'oyalari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: kreativlik, innovatsiya, jamiyat, ijodkorlik, divergent, convergent, ijodiy tafakkur.

"Kreativ" so'zi inglizcha "creative" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "ijodiy" yoki "yaratuvchi" degan ma'noni anglatadi. Bu atama insonning o'z fikrini mustaqil va noan'anaviy tarzda ifodalash, mavjud narsalarga yangi yondashuvlar topish va o'zgarishlar qilish qobiliyatini anglatadi. Kreativlik ijodkorlik va tasavvur kuchi bilan bog'liq bo'lib, san'at, ilm-fan, biznes, texnologiya va boshqa sohalarda yangi g'oyalarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Kreativlik nafaqat san'atda, balki kundalik hayotda ham yangilik yaratish va muammolarni original tarzda hal qilishni talab qiladi. Kreativlik aslida oldinda mavjud bo'lgan fikrlarning ustida yangi aloqlarni o'rnatish. Oldindan mavjud bo'lgan ikki fikrni, oldindan mavjud bo'lmagan shaklda bir joyga jamlash. Ya'ni kreativlik bir fikrni yoki g'oyani ilk marotaba yaratish degani emas. Bir nechta fikrlarni o'zaro birlashtirib, yangi bir ma'no kasb etish. Kreativlik tarixining rivojlanishi bir nechta bosqichlardan iborat. Har bir bosqichda kreativlikka bo'lgan qarashlar va uning ilmiy, ijtimoiy, va madaniy tushunchalari o'zgarib boradi. Quyida kreativlik tarixining asosiy bosqichlarini sanab o'tilgan:

1. Qadimiy davrlar va falsafiy qarashlar- kreativlikning dastlabki na'munalari qadimiy falsafa va san'atda mavjud edi. Yunon filosofi Aristotel kreativlikni "boshqariladigan ilhom" deb ta'riflagan. Unga ko'ra, ijodkorlar tashqi ta'sirga ko'ra o'z ijodlari bilan shug'ullanganlar.

2. Renessans (XIV-XVII asr) - kreativlikka bo'lgan qarashlar ham o'zgarib, insonning o'z qobiliyatlarini anglashga asoslangan. Bu davrda san'atkorlar, olimlar va mutafakkirlar kreativlikni "inson ruhining" ko'rinishi sifatida qarashni boshladilar. Leonardo da Vinchi va Mikelanjelo kabi buyuk shaxslar yaratgan san'ati va ilmiy kashfiyotlari orqali kreativlik insonning o'z-o'zini ifodalash va tashqi dunyo bilan aloqasining shakli sifatida tushunila boshlandi.

3. Illuminasizm va romantizm (XVIII - XIX asr) - kreativlikni tasavvur, hayotiy tuyg'ular va hissiyotlar bilan bog'lash boshlandi. Romantik san'atkorlar va adiblar kreativlikni ichki erkinlik va shaxsiy ekspressiya sifatida ko'rganlar. Ularning fikricha, ijodkorlik nafaqat texnik ko'nikmalar, balki chuqur his-tuyg'ular va ongning erkin holati bilan aloqador edi.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

4. Psixologiyada kreativlikka bo'lgan ilmiy qarash (XX asr) - kreativlikni o'rganishga astoydil harakat qilishdi. E. Paul Guilford (1950-yillarda) kreativlikni ilmiy tahlil qila boshladi va uni ikki turga ajratdi: "divergent" va "convergent" fikrlash. U kreativlikni ilg'or fikrlash, yangi g'oyalar yaratish qobiliyati sifatida ko'rgan. 1960-yillarda Mihaly Csikszentmihalyi "flow" holatini kashf etdi va bu kreativlik jarayonida odamni to'liq markazlashtiradigan holatni ifodalaydi.

5. Kreativlikni o'rganish va qo'llash (XXI asr) - hozirgi vaqtda kreativlik nafaqat san'at va ilm-fanda, balki biznes, texnologiya, ta'lim va kundalik hayotda ham muhim o'rin tutadi. Innovatsiyalarni yaratish, yangicha yechimlar topish va yangi fikrlarni shakllantirish jarayonida kreativlikka alohida e'tibor qaratiladi. Shu jumladan, kreativlikni boshqarish va rivojlantirish usullari ham keng o'rganilmoqda. Kognitiv psixologiya, neyrofan va biznes strategiyalaridagi yondashuvlar kreativlikni qanday rivojlantirish mumkinligini ko'rsatadi.

6. Hozirgi davr. Raqamli va texnologik kreativlik - texnologiyaning rivojlanishi bilan kreativlik yangi shakllarga o'tmoqda. Dasturlash, sun'iy intellekt, raqamli san'at va yaratish texnologiyalari kreativlikni kengaytirib, yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Bugungi kunda kreativlik shunchaki san'at bilan cheklanmay, biznes innovatsiyalaridan tortib, ilmiy izlanishlar va raqamli dizaynlargacha bo'lgan turli sohalarda qo'llanilmoqda.

Kreativ fikrlash ta'siri butun jamiyatga sezilarli innovatsiya turlarining ortida turishi rost, ammo u ayni vaqtda universal va tenglashtiruvchi xususiyatga ega fenomen hamdir, ya'ni har qanday shaxs, u yoki bu darajada, kreativ fikrlash qobiliyatiga ega. Amerikalik olim D.Veksler "Kreativlik fikrning shunday turiki, u shaxsga bir muammo yoki masala yuzasidan birdaniga bir nechta yechimlar paydo bo'lishini taqozo etadi va shablonli, zerikarli fikrlashdan farq qilib, narsa va hodisalar mohiyatidagi o'zga xoslik, noyoblik sifatlarini anglashga yordam beradi" - deb ta'rif beradi. Kreativlik insonni fikrlash qobiliyatini yanada takomillashtirgan holda ijtimoiy hayotning, inson faoliyatining oliy boshqaruvchisi vazifasini bajaradi. Sigmund Freud (psixolog)-kreativlikni insonning psixik jarayonlari bilan bog'lagan. U shaxsning bilish va hissiy holatlari orqali ijodiy g'oyalar paydo bo'lishini tushuntirgan. Freudning fikrich „Kreativlik - bu odamning ichki quvvatlarining tashqi dunyoga chiqarilishi va bilish jarayonlarining bo'shliq va cheklovlar orqali ifodalanishi". Gardnerning fikri: "Kreativlik har bir intellektual qobiliyatda o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi". Uning fikriga ko'ra, kreativlik nafaqat oddiy bir yechimga erishish, balki ko'plab mumkin bo'lgan yechimlarni ishlab chiqish va yangi yo'llarni yaratishdir. Guilfordning fikri: "Kreativlik — bu yangi va original g'oyalar yaratish, o'zgarishlarni kiritish qobiliyatidir". Albert Eynshteyn, ilm-fanda kreativlikni yuqori darajada qadrlagan va uning ijodkorlikka nisbatan qarashlarini ochib bergan. U ilmiy ishlarda kreativlikni tasavvur va g'oyalarning erkinligi sifatida qaragan. Eynshteynning fikri: "Imkoniyatlar chegarasini kengaytirish uchun tasavvur va ijodkorlikdan foydalanish zarur." Kreativlik haqida olimlarning fikrlari shuni ko'rsatadiki, bu tushuncha ko'plab nuqtai nazarlardan tahlil qilingan. Ba'zilar uni





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

shaxsiy qobiliyat sifatida, boshqalar esa ong va tashqi omillar o'rtasidagi murakkab aloqalar sifatida qarashadi. Olimlarning fikrlari kreativlikning turli jihatlarini yoritadi va har birining o'ziga xos yondashuvi bor. Ularning barcha tasvirlagan jihatlarini kreativlikni tushunishga zamin yaratadi va uni rivojlantirish uchun turli usullarni taklif etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M.O.Karimova, D.Q.Rafiqova, B.X.Baydjanova „, Pedagogik kompetentlik va kreativ asoslari " (o'quv qo'llanma) , Farg'ona- 2021.
2. Sh,Yuvashov, B.Akbarov „, Kreativ fikrlash" , Namangan - 2024.
3. N.Sayidahmedov „, Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiyalar", Toshkent- 2023.
4. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" . Davlat ilmiy nashiryoti, Toshkent.

